



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 192 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуювна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуювна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbayeva Dilnoza Darvishaliyevna	



KORXONALARDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Narbayeva Dilnoza Darvishaliyevna

Jizzax politexnika instituti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası assistenti,

ORCID ID: 0000-0002-9290-7878

E-mail: dilnoza4405@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Innovatsion jarayon tushunchasi, uning ahamiyati va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion jarayon, boshqaruv mexanizmi, korxona rivojlanishi, texnologik yangilanish, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: This article explores the organizational and economic mechanisms of managing innovation processes in enterprises, both theoretically and practically. The concept, significance, and stages of the innovation process are analyzed. Based on the research results, specific recommendations and proposals have been developed to improve the efficiency of innovation management.

Key words: innovation, innovation process, management mechanism, enterprise development, technological modernization, economic efficiency.

Аннотация: В данной статье теоретически и практически изучены организационно-экономические механизмы управления инновационными процессами на предприятиях. Проанализированы понятие, значение и этапы инновационного процесса. На основе результатов исследования разработаны конкретные рекомендации по повышению эффективности управления инновациями.

Ключевые слова: инновация, инновационный процесс, механизм управления, развитие предприятия, технологическое обновление, экономическая эффективность.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon xo'jaligida raqobatning keskinlashuvi, texnologik o'zgarishlar tezligi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi korxonalarning innovatsion rivojlanish strategiyasiga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirdi. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lib, ular nafaqat yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish, balki ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda bozor sharoitlariga moslashish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. “Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030” hujjatida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, texnoparklar hamda startap ekotizimlarini qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu jarayonda korxonalarda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi [1–3].

Innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi – bu innovatsiyalarni yaratish, joriy etish va ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi boshqaruv vositalari, usullari hamda institutlari majmuasidir. Ushbu mexanizmni to'g'ri tashkil etish korxonaga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: bozorda raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, yangi bozor segmentlarini egallash, ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanish.



Mazkur maqolaning maqsadi – korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini nazariy jihatdan asoslash, mavjud holatni amaliy tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolaning obyekti – innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi ishlab chiqarish korxonalari.

Predmeti – korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarish masalasi xalqaro va milliy miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, ilmiy adabiyotlarda bu borada turli yondashuv va konsepsiyalar mavjud. Jahon tajribasida innovatsion boshqaruv nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshlagan.

P. Drucker (2006) o'zining *Innovation and Entrepreneurship* asarida innovatsiyani korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida talqin etadi. Uning fikricha, innovatsion jarayonlar strategik boshqaruvning ajralmas qismi bo'lishi kerak va ular tizimli rejalashtirish hamda monitoring orqali amalga oshirilishi lozim.

J. Tidd va J. Bessant (2021) *Managing Innovation* kitobida innovatsion jarayonlarni boshqarishning to'rt bosqichli modelini taklif etadi: g'oyalarni shakllantirish, tanlash, amalga oshirish va tijoratlashtirish. Ular innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati korxonaning tashkiliy madaniyati va resurslardan foydalanish qobiliyatiga bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan Oslo qo'llanmasi (2018) innovatsiyalarni o'lchash va tahlil qilishning metodologik asoslarini belgilaydi [4–9]. Ushbu qo'llanmada innovatsiyalar mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy turlarga ajratilib, ularning har biri uchun aniq baholash ko'rsatkichlari keltirilgan.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsion rivojlanish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. B. Axmedov (2021) Davlat boshqaruvida innovatsion mexanizmlar asarida innovatsion boshqaruvning davlat siyosati bilan uzviy bog'liqligini yoritgan. M. Jo'rayev (2020) esa korxonalarda innovatsion infratuzilma elementlarini rivojlantirish bo'yicha nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (2019) innovatsion jarayonlarni tashkil etish va ularni qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini belgilaydi. Ushbu qonunda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, texnoparklar, inkubatorlar va startaplarni moliyalashtirish mexanizmlari tartibga solingan [1–9].

Xorijiy va milliy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarni boshqarishda quyidagi asosiy yondashuvlar qo'llaniladi: tizimli yondashuv (strategik rejalashtirish va resurslarni muvofiqlashtirish), loyiha boshqaruvi asosidagi yondashuv (bosqichma-bosqich amalga oshirish), klaster va tarmoq hamkorligi modeli hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga asoslangan model.

Shunday qilib, mavzuga oid adabiyotlar innovatsion jarayonlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini yoritadi. Biroq har bir korxona o'zining resurslari, bozor sharoiti va strategik maqsadlaridan kelib chiqib, moslashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini nazariy jihatdan o'rganish, amaliyotdagi holatini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar va tahlil vositalari qo'llanildi.

Ilmiy yondashuvlar:

- Tizimli yondashuv – innovatsion jarayonlarni boshqarish korxonaning umumiy strategiyasi va ishlab chiqarish tizimining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqildi.

- Kompleks yondashuv – innovatsion jarayonlarning tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik va ijtimoiy jihatlarini birgalikda tahlil qilindi.

- Taqqoslash yondashuvi – milliy va xorijiy tajribalar solishtirildi hamda ilg'or amaliyotlar o'rganildi.

Tadqiqot usullari:

- Nazariy tahlil – innovatsion boshqaruvga oid ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari va xalqaro standartlar o'rganildi.

- Iqtisodiy-statistik tahlil – tanlangan korxonaning moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

- SWOT-tahlil – korxonaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlari aniqlanib, ularning innovatsion rivojlanishga ta'siri baholandi.

- Grafik va diagramma usullari – olingan ma'lumotlarni vizuallashtirish va tushunishni osonlashtirish maqsadida qo'llanildi.



- Ekspert baholash – korxona mutaxassislari va soha ekspertlarining fikrlari yig'ilib, tahlil qilindi.

Ma'lumot manbalari:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari.
- Tanlangan korxonaning ichki hisobotlari (moliyaviy, ishlab chiqarish va marketing bo'yicha).
- Innovatsion boshqaruvga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar va xalqaro tashkilotlar (OECD, UNIDO) hisobotlari.
- Amaldagi qonunchilik hujjatlari, strategiyalar va konsepsiyalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Innovatsiya” atamasi lotincha innovatio – “yangilash” so'zidan olingan bo'lib, iqtisodiy kontekstdagi ma'nosi yangilikni amaliyotga joriy etish orqali foyda keltiruvchi jarayonni anglatadi. Innovatsion jarayon esa — yangilik g'oyasidan boshlab uni yaratish, sinovdan o'tkazish, amaliyotga tatbiq etish va tijoratlashtirishgacha bo'lgan uzluksiz harakatlar majmuasidir.

OECD Oslo qo'llanmasiga ko'ra, innovatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Mahsulot innovatsiyasi – yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulot yaratish.
2. Jarayon innovatsiyasi – ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish usullarini yangilash.
3. Marketing innovatsiyasi – mahsulotni bozorga chiqarish va sotish strategiyasida yangiliklar joriy etish.
4. Tashkiliy innovatsiya – boshqaruv va tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish.

Innovatsion jarayonlar korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi, bozor ulushini kengaytiradi hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Bugungi sharoitda innovatsion rivojlanishga qodir korxonalar iqtisodiy o'sishning barqaror manbalarini yaratib, bozor pozitsiyalarini mustahkamlay oladi.

Ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalarga ko'ra, innovatsion jarayon odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. G'oya paydo bo'lishi va shakllantirish – yangi texnologiya, mahsulot yoki xizmat bo'yicha dastlabki g'oyalarni yig'ish.
2. Tahlil va tanlash – g'oyalarning texnik, iqtisodiy va marketing jihatdan maqsadga muvofiqligini baholash.
3. Tajriba-sinov ishlari – prototip yaratish, laboratoriya va ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish.
4. Joriy etish – ishlab chiqarishga tatbiq qilish va jarayonlarni moslashtirish.
5. Tijoratlashtirish – mahsulot yoki xizmatni bozorga chiqarish va foyda olish bosqichi [5].

Bu bosqichlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, samarali natija uchun uzluksiz hamkorlik va resurslarning to'g'ri taqsimotini talab etadi.

Nazariy jihatdan innovatsion boshqaruv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Tizimlilik – innovatsiya jarayoni korxonaning umumiy strategiyasi bilan uyg'un bo'lishi.
- Moslashuvchanlik – bozor sharoitlari va texnologik o'zgarishlarga tez javob qaytarish.
- Risklarni boshqarish – innovatsion faoliyat bilan bog'liq noaniqlik va xavflarni minimallashtirish.
- Resurslardan samarali foydalanish – moliyaviy, mehnat va moddiy resurslarni optimal taqsimlash.

Innovatsion jarayonlarni boshqarishda strategik boshqaruv modeli, loyiha boshqaruvi yondashuvi va klasterli hamkorlik keng qo'llaniladi [6].

Xalqaro tajribada AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishda quyidagi mexanizmlar samarali natija bermoqda: ilmiy-tadqiqot institutlari bilan yaqin hamkorlik, davlat tomonidan soliq imtiyozlari va grantlar, texnoparklar va startap inkubatorlari, sanoat-akademiya integratsiyasi.

O'zbekistonda esa “Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030”, “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonun (2019-yil) hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar korxonalarda innovatsion faoliyatni jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarni boshqarish korxonaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Innovatsion boshqaruv tizimini to'g'ri tashkil etgan korxonalar mahsulot va xizmatlarini doimiy yangilab, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi, bozor ulushini kengaytirishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkin.

Misol sifatida tahlil obyekti “XYZ” aksiyadorlik jamiyati (nomi shartli) tanlandi. Korxona 2005-yildan buyon sanoat mahsulotlari ishlab chiqarib keladi va so'nggi yillarda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida innovatsion rivojlanishga alohida e'tibor qaratmoqda. Asosiy ishlab chiqarish yo'nalishlari: yuqori texnologiyali metall buyumlar ishlab chiqarish, sanoat uskunalari modernizatsiya qilish, yangi energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish [8].

Korxona tarkibida innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik bo'limi mavjud bo'lib, u yangi mahsulotlar ishlab chiqish va mavjud texnologiyalarni takomillashtirish ustida ishlaydi. So'nggi uch yil davomida “XYZ” AJ mahsulot innovatsiyalari yo'nalishida yangi mahsulot turlarini, jumladan



energiya tejamkor nasoslarni ishlab chiqdi, jarayon innovatsiyalari doirasida ishlab chiqarish liniyalarini avtomatlashtirdi, marketing innovatsiyalari asosida onlayn savdo platformalarini joriy etdi hamda tashkiliy innovatsiyalar doirasida loyiha boshqaruvi tizimini tatbiq etdi (1-jadval).


1-jadval. Korxonada 2022–2024-yillar davomida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va ulardan tushgan daromad

Yil	Innovatsion mahsulot hajmi (mlrd so'm)	Umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (%)	Innovatsion mahsulotdan daromad (mlrd so'm)
2022	45.2	12.5	18.6
2023	58.7	15.8	23.9
2024	76.4	19.3	31.7

Tahlil. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022–2024-yillar oralig'ida innovatsion mahsulotlarning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 12,5 foizdan 19,3 foizgacha oshgan. Bu esa korxonada innovatsion strategiyaning bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi hamda ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot raqobatbardoshligi va bozor ulushining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "XYZ" AJ innovatsion jarayonlarni joriy etish bo'yicha barqaror yutuqlarga erishgan. So'nggi uch yil ichida innovatsion mahsulot ulushi qariyb 7 foiz punktga oshgan bo'lib, bu korxonaning innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan boshqaruv siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. SWOT-tahlil asosida quyidagi jihatlar aniqlandi.



Biroq moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi va malakali mutaxassislar yetishmasligi mavjud bo'lib, bu holat innovatsion rivojlanish sur'atlarining izchil oshishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, kelgusi bosqichda korxonaning innovatsion faoliyatini yanada jadallashtirish maqsadida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi hamda olib borilgan tadqiqotlar asosida muhim ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayon korxonaning raqobatbardoshligini oshirish,



ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omildir. Innovatsion jarayonlarning barcha bosqichlari — g'oya shakllantirishdan boshlab tijoratlashtirishgacha bo'lgan jarayonlar — tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi zarurligi ta'kidlandi. "XYZ" AJ misolida o'tkazilgan amaliy tahlil shuni ko'rsatdiki, korxonada innovatsion mahsulot ulushi so'nggi uch yil davomida 12,5 foizdan 19,3 foizgacha oshgan bo'lib, bu esa korxonada amalga oshirilayotgan innovatsion boshqaruv strategiyasining natijadorligini yaqqol tasdiqlaydi. Shu bilan birga, moliyalashtirish imkoniyatlarining chegaralanganligi, ayrim mutaxassislar malakasining yetarli darajada bo'lmashligi va bozordagi raqobatning kuchayishi mavjud muammolar sifatida qayd etildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi strategik yo'nalishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi: innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat grantlari, xorijiy investitsiyalar va xususiy sektor mablag'laridan foydalanish, innovatsion obligatsiyalar chiqarish va korporativ investitsion fond tashkil etish orqali moliyaviy manbalarni kengaytirish; xodimlar uchun yangi texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda stajirovka dasturlarini joriy etish orqali kadrlar salohiyatini oshirish; yangi uskunalarni xarid qilish, mavjud ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish, xorijiy texnologiyalarni transfer qilish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali texnologik yangilanishlarni jadallashtirish; korxona tarkibida texnopark yoki inkubator bo'limini tashkil etish hamda startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish orqali innovatsion infratuzilmani rivojlantirish; innovatsion mahsulotlarni yangi geografik bozorlar va onlayn savdo platformalariga chiqarish, brending va marketing innovatsiyalarini kuchaytirish orqali bozor strategiyasini diversifikatsiya qilish. Ushbu takliflarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish korxonada innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son Farmoni. — Toshkent, 2018-yil. <https://lex.uz/ru/docs/-3913188>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 7-iyundagi 475-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6173258?ONDATE=01.01.2025%2000>
3. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 24-iyul, № 03/20/631/1030.
4. OECD. Osiyo davlatlarida innovatsion siyosat va iqtisodiy rivojlanish. — Parij: OECD Publishing, 2022-yil.
5. Drucker, P. Innovation and Entrepreneurship. — Nyu-York: HarperBusiness, 2024-yil.
6. Kamalov, T. N., Kudratov, M. R. Innovatsion jarayonlarni boshqarish. — Moskva-Toshkent: INFRA-M, 2024-yil.
7. Xolmatov, N., Qodirov, B. Korxona iqtisodiyoti va menejment. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021-yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti — <https://stat.uz>
9. UNIDO. Industrial Development Report 2024: The Future of Industrialization in a Digital Era. — Vena: UNIDO Publishing, 2024-yil.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>